

**UMAR IBN HATTOBNING ISLOMDAGI ADOLAT HAQIQATI**

*Ilmiy rahbar: X.U.Samatov*

*Toshkent axborot texnologiyalari unversiteti*

*Samarqand filiali telekomunikatsiya texnologiyalari*

*va kasb talim fakulteti 1-kurs talabasi*

*Bafoyev Ulug'bek Ilhom o'g'li*

**Annatosiya:** Ushbu maqolada Umar ibn Hattobning siyosat jihatdan kuchliligi, islom tarixida mukamal iz qoldirgani, xalqi uchun jonkuyar podshoh bo'lgani, ilmi mukamal,jasoratli, jasur ,mard ekani taqdim etilgan.

**Kalit sozlar:** ta'lif, xalq iymon, marifat, ilm, Qur'on, hadis.

Bani Maxzum qabilasining eng obro'li kishilaridan biri Hishom ibn Mug'iyra Maxzumiyning qizi Xontama fil voqaeasidan o'n uch yil o'tgandan so'ng o'g'il ko'rdi. O'g'liga Umar deb ism qo'ydi.

Tavalludlari: Fil yilining o'n uchinchi yili, Makkada tavallud topganlar.

Bu Umar ibn Xattob ibn Nufayl ibn Abduluzzo ibn Royah ibn Abdulloh ibn Qurt ibn Rozih ibn Adiy ibn Ka'b ibn Lu'ay ibn G'olib ibn Qurayshdir. Umar ibn Xattob johilona hayot kechirayotgan qavm orasida o'sib-ulg'aydi.

Ko'rinishlari: Yuz, ko'z va burunlari chiroyli, oq-sariqdan kelgan, uzun bo'ylik, bahaybat gavdalik, qat'iy so'zlik, jiddiy fe'l sohibi, sabot va qattiq qalb egasi, chapaqay edilar va har ishni ikki qo'llarida bemalol bajarar edilar, sochlari siyrak, yursalar tez yurar edilar. Odamlar orasida tursalar, go'yo odamlar piyoda, Umar roziyallohu anhu esa ulovda turgandek ko'rinar edi.<sup>1</sup>

Yoshligida bundan boshqacha hayotni tasavvur qilmas, qavm nimani odat qilgan bo'lsa, shunga taqlid qilar, qimor o'ynar, sharob ichib, ko'nglini xushlardi. U shijoatli, rostgo'y, omonotdor va ixlosi bilan boshqalarning havasini keltirardi. Yoshligidan jasorati, shijoati va zakiyligi bilan tanildi. Umar Qurayshning yoshlari kabi amakisining o'g'li Zayd ibn Amr ibn Nufaylning qo'ylarini boqib voyaga yetdi. Zayd Ibrohim alayhissalom dinida bo'lib, Umarni ham bir necha marta shu dinga undab ko'rdi. Umar uning aytgan so'zlarini o'ylab ham ko'rmadi. Chunki Zaydnинг mustaqil bir fikrga ega bo'lmay boshqalarga taqlid qilish odati borligini bilardi. Umar ibn Xattob Roziyallohu anhu sahobalarning eng oliysi umatning ilhomlangani dindagi eng shidatli vafoti bilan butun umatni yig'latgan islom otasi hech kimdan qo'rwmagan dunyodan behojat zohid bo'lган roziga azizlik g'azabi hukum bo'lган shayton undan

<sup>1</sup> <https://asaxiy.uz/product/ahmad-lutfij-ozonchi-azrati-umar-roziyallohu-anhu>

qorqqan islom qo'g'oni. Uning sobit ustuni fors va rum sultanatini kotargan eng kata islomiy futohotlar egasi rayini tasdiqlab robisi quronda oyatlar tushurgan kishi Allah taolo u zotning tiliga qalbiga haqni joylagan undan keying xalifalarning xoliga voy bo'lgan u tufayli umat fitnalardan omonda bo'lgan uning iymoni bilan islom aziz boldi u kishining iymoni Rasululloh salollohu alayhi vasalamning duosini barakoti tufayli boldi va bashariyat tarixida Umar ibn Xattob Roziyallohu anhuadolat ramzi sifatida qoldi Umar ibn Xattob Roziyallohu anhu dek odil podsho yer yuzida bo'lgan mas hatto g'arb tarixchilari yer yuzida umardek odil podsho bo'ganligini hech qaysi kitobda keltirib o'tmaydi balki ular Umar ibn Xattobdaka podsho bomasligini aytishadi Umar ibn Xattob Roziyallohu anhu u kishi islomini birichi bolib oshkor qilgan kishi birinchi bolib "Amirul Mo'minin" degan laqab shu kishiga berilgan payg'ambar alay vasallam madinaga ko'chib borgandan boshlab tarixni kitobod qildirgan kishi. Ramazonda ramazon himoyillayi nomozlarini imom orqasida o'qishlikni birinchi bolib sunnat qilgan kishi.<sup>2</sup>Masjidlarda birinchi bolib chiroq qilgan kishiki, Umar ibn Xattob Raziallohu anhu otib ketganidan keyin ramazon kechalarida masjiddagi chiroqni korib ali roziyallohu anhu ey amirul mo'minin yo Umar Aloh sizni qabringizni munavar qilsin deb duo qiladi.Birinchi bo'lib umatni rayiyatni holidan habar olishlig uchun kechalari ko'chalarni kezib yurgan xalifa. Bu kishi saksan darrani birinchi bolib joriy qilgan kishi.Bu kishi qullar bozorida farzandlarini onalaridan ajratmasdan sotishlikni bekor qilgan kishi. Bu kishi janazani to'rt takbirga birinchi bolib jamlagan kishi bu kishi birinchi bolib devonni barpo qilgan kishi bu zot quronni kitob suratiga keltirishlikni fikrini birinchi bolib o'rta ga tashlgan zot.Bu kishi haqida aytishar edi szlarni qilishingizdanko'ra umarni darrasidan ko'proq qo'rquamiz derdi umatlar.Birinchi bo'lib Abu Bakrga bayat bergen kishi va birinchi bolib Maqomi ibrohimda nomoz o'qishlikni musulmonlarga taklif qilgan kishi. Allah azza va jalla arab diyoriga hidoyat va haq dinni yubordi. Umar ibn Xattob Nabiy alayhissalomning bu dinga da'vat qilayotganini ko'rdi. Da'vatni yetkazish yo'lida Rasululloh alayhissalom va u kishining sahabalari qattiq qiyinchiliklarga uchryotganiga Umar loqayd qaray olmasdi. Qolaversa, rostgo'ylarning rostgo'yi bo'lgan payg'ambar alayhissalom duo qildilar: - Ey Allahim, islomni aziz qilgin, o'zingga mahbub bo'lgan ikki kishining biri bilan islomni aziz qilgin: Umar ibn Xattob yoki Amr ibn Hishom (Abu Jahl).

Umar bir kuni choshgoh paytida Ka'baga yo'l oldi. U yerda tog'asi Abu Jahl Amr bin Hishom Ka'baning oldida turib: "Ey Quraysh jamoasi, Muhammad olihalaringizni haqorat qilayati, sizni ahmoqqa chiqarayapti va o'tgan salaflaringizni do'zaxga tushadi, deb da'vo qilayapti. Ogoh bo'linglar, kimki Muhammadni o'ldirsa, yuzta qizil

<sup>2</sup> <https://siyrat.uz/kitob/10094>

va qora tuya, ming uqiya kumush va falon, falon narsa oladi", deb xitob qilayotganini ko‘rdi.

Shunda Umar uning yaqiniga borib aytdiki:

- Men shuni qilaman. Qurayshliklar so‘rashdi.
- Sen uni o‘ldirasanmi, ey Umar?

Umar ha, deb javob berdi.

Umar ibn Xattob Qurayshning ulug‘lari bilan bu ishni qilish uchun ahdlashdi. Rasulullohni tezroq qatl qilish ishtiyoqida qilichini osib kamonlarini yelkasiga tashlab, yo‘lga tushdi.

Umar ketayotgan vaqtida qavmidan bo‘lgan Nuaym ibn Abdulloh Nuhamni uchratib qoldi. U isломни qabul qilsa-da, qavmidan qo‘rqqani uchun musulmonligini yashirib yurardi. <sup>3</sup>Umarning ko‘zidan bir yomonlikni payqadi, uning yuzini g‘azab va nafrat o‘rab olganini sezdi. Nuaym so‘radi:

- Qaerga ketayapsan, ey Ibn Xattob? Umar yo‘lida to‘xtab:
- Men quraysh xalqini ajratgan, ulutlarini nodonga chiqarib, olihalarini haqorat qilgan bir sobiiyni o‘ldirmoqchiman. Nuaym ibn Abdulloh uni shashtidan tushirish maqsadida:
  - Allohga qasamki, nafsing seni aldab qo‘yibdi. Agar sen Muhammadni o‘ldirsang, Bani Abdu Mannof bolalari seni yer yuzida yurishingga qo‘yib qo‘yadi deb o‘ylaysan-mi?- dedi.

U qanday bo‘lmisin Umarni Rasululloh alayhissalomga aziyat yetkazish fikridan qaytarishni o‘ylardi.

U Umarga:

- Sen oldin o‘z oilangga qaytib ularni tuzat, - dedi. Umar ibn Xattob o‘ylanib qoldi. Gap nima xususda ekanini tushunmasdan: - Qaysi oilam haqida gapiryapsan, - dedi.

Nuham ibn Abdulloh aytdi:

- Kuyoving Said bilan singling Fotima isломни qabul qildi. Muhammadning diniga o‘tishdi. Sen avval ikkovi bilan gaplashgin.

Umar ibn Xattob yo‘lidan qaytib, g‘azablangan holda singlisi Fotimaning uyiga qarab ketdi. Singlisi uyida Habob ibn Art kuyovi bilan singlisi Fotimaga Qur'on oyatlari bitilgan sahifa - Toho surasini o‘qib berayotgan edi. Shu payt Umarning daragini eshitib Habobni tahmon orqasiga yashirishdi. Singlisi Fotima oyat bitilgan sahifani bir joyga yashirdi. Umar uyga kirib darhol so‘radi:

- Pichirlab nimani o‘qiyotgan edilaring, men uni eshitdim.

Fotima bilan kuyovi: - Nimani eshitdintiz, shunchaki gaplashib o‘tiribmiz degandek hayron bo‘lishdi. Umar ibn Xattob aytdi:

<sup>3</sup> <https://asaxiy.uz/product/ahmad-lutfij-ozonchi-azrati-umar-roziyallohu-anhu>

- Menga ikkalangizni ham Muxammad diniga ergashganingiz xabari yetdi, - deya kuyovi Saidning yuziga bir musht tushirdi. Fotima erini himoya qilmoqchi bo‘lganida uni ham yuziga uring jarohat yetkazdi. Singlisi yuzidan qon oqdi. Fotima bilan uyovi uning bu ishidan jahli chiqib, haqiqatni oshkor qilishdi:

Ha, shunday biz islomni qabul qildik. Allohga va uning Payg‘ambariga iymon keltirdik. Jaholat botqog‘idan chiqib saodat yo‘liga kirdik, har xil toshlardan yasalgan but sanamlarga sig‘inishdan qutildik. Endi nima qilsang qil!

Umarning mushtidan keyin Fotimaning yuzidan oqayotgan qon uni achinarli ahvolga keltirib qo‘ygandi. Singlisining ahvoli unga qattiq ta’sir qildi. Qo‘rqib qaltirab turgan singlisini bag‘riga bosib oldingidan yumshab dedi:

- Hozirgina o‘qiyotgan sahifalarini menga beringlar. Muhammad keltirgan narsa nima ekanini ko‘rmoqchiman.

Fotima binti Xattob akasidagi o‘zgarishni ko‘rib aytdiki:<sup>4</sup>

- Uni sizga berishdan qo‘rqamiz. Umar ibn Xattob dedi:

- Lotga qasamki, qo‘rqma, men uni o‘qigandan keyin, albatta, qaytarib beraman.

Fotima binti Xattob akasining iymon keltirishidan umid qilib dedi:

- Ey akajon, bu Payg‘ambarimiz(s.a.v.)ga nozil qilingan Allohning kitobidir, uni betahorat holda qo‘lga ushlab bo‘lmaydi.

Umar ibn Xattob o‘rnidan turib g‘usl qilib keldi. Shundan keyin singlisi Fotima qo‘lidagi sahifani unga berdi. Akasi sahifaga qarab shunday yozuvlarni o‘qiy boshladi: "Bismillahir rohmanir rohim. To, Ha. (Ey Muhammad alayhissalom), Biz sizga bu Qur’oni qiyinalib jafo chekishingiz uchun emas, balki (Allohdan) qo‘rqadigan kishilarga pand-nasihat bo‘lsin uchun nozil qildik. (U) yerni va yuksak osmonlarni yaratgan Zot tomonidan nozil qilingandir. (U Zot) Uz Arshiga o‘rnashgan Rahmondir. Osmonlardagi, yerdagi va ularning orasidagi hamda tuproq ostidagi bor narsa Uningdir" (Toha, 1-6).

Majusiy Abu Lulu' amirul mo‘minin Umar fors yerlarini fatx, qilgan vaqtlarida Madinaga asir qilib keltirilgan edi. Shu paytgacha Islomni qabul etmagan Abu Luluning xayolini qasos olish fikri chulg‘ab olgan edi. U amirul mo‘minining bomdod namoziga kelishini sabrsizlik bilan kutardi. Hazrati Umar imomlikka o‘tganlaridan so‘ng yovuz maqsadini amalga oshirish uchun qulay fursat yetganini angladi. Amirul mo‘mina tashlanib ko‘kraklariga bir necha bor xanjar sanchdi. Musulmonlarning ham bir nechtasini yarador qiladi. Qutilib ketishiga ko‘zi yetmaganidan so‘ng zahar surtilgan xanjar bilan o‘zini o‘ldiradi. Hazrati Umar qutilning musulmonlardan bo‘lmay bir majusiy ekanligini bilganlaridan so‘ng Allohga hamd aytdi. Ulug‘ sahobiy va davlat arbobi Payg‘ambarimiz alayhissalom duo qilganlaridek shahidlik martabasiga erishdi.

<sup>4</sup> <https://asaxiy.uz/product/ahmad-lutfij-ozonchi-azrati-umar-roziyallohu-anhu>

Bu zulhijja oyining to‘rtinchi kuni, Hijratning 23-yili sodir bo‘ldi. Hazrati Umar 10 yilu, olti oyu to‘rt kun davlatni boshqardi. Shahid bo‘lganida 63 yoshda edi. Umarul Foruq do‘satlari Rasululloh (s.a.v.) va Abu Bakrning yonlariga - Oisha onamizning hujrasiga dafn qilindi.

Xulosa qilib aytganda Umar ibn Xattob , adolat tizimining tarqatilishi, isloh qilinishi, va ishonchli bo‘lishi uchun shuhrat qozongan mas’uliyatli shaxslardan biri hisoblanadi. Uning davlat rahbarligi davomida Islom adliya tizimi kuchli va efektiv bo‘lib, adolat, barqarorlik va huquqiy tartibga ega bo‘lgan, bir jamiyatni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo‘ldi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:**

1. <https://asaxiy.uz/product/ahmad-lutfij-ozonchi-azrati-umar-roziyallohu-anhu>
2. Abdulloh domla Umar Roziyallohu anhu haqidagi ma’ruzalari.
3. <https://islom.ziyouz.com/kitoblar/hazrati-umar-ibn-hattob-r-a>
4. <https://siyrat.uz/kitob/10094>
5. <https://olam.uz/54543>
6. <https://islom.ziyouz.com/siyrat/sahobalar/umar-ibn-xattob>
7. <https://siyrat.uz/kitob/10094>